



2024-yil. 3-son

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL  
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

# Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>



## *Bahor keldi seni so'roqlab...*

*Salqin saharlarda, bodom gulida,  
Binafsha labida, yerlarda bahor.  
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,  
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...*

*Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni,  
O'rik gullarining eding maftuni.  
Har uyg'ongan kurtak hayot bergan kabi  
Ko'zlaringga surtib o'parding uni.*

*Mana qimmatligim, yana bahor kelib,  
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.  
Qishning yoqasidan tutib so'radi seni,  
Ul ham yoshi to'kdi-yu, chekindi nari.*

|                       |    |
|-----------------------|----|
| КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА..... | 53 |
|-----------------------|----|

## TAHLIL

|   |    |
|---|----|
| <b>O'tkir Abdunazarov.</b> Esse janri va Nosir Fozilov ijodi.....   | 56 |
| <b>Sardor Baxriddinov.</b> G'afur G'ulom asarlaridan kelib chiqadigan huquqbuzarlik holatlarining bayoni.....   | 60 |
| <b>Alimardon Ergashev.</b> Said Ahmad "Taqqdir, taqqdir, muncha beshafqatsan!" hikoyasini blum taksonomiyasi orqali o'rganish.....                            | 61 |
| <b>Nargiza Mirzayeva.</b> Mediada bolalar uchun kontent yaratish tamoyillari.....   | 64 |
| <b>Shohinur Rahmataliyeva.</b> "Alpomish" dostonida Barchin obrazining o'rganilishi.....  | 66 |
| <b>Amira Ibatova.</b> Non bilan bog'liq leksemalar tahlili.....   | 68 |
| <b>Nigora Abdusalomova.</b> "Zevaxon" dostonining o'rganilishi.....   | 70 |
| <b>Normat Yuldashev.</b> Cho'lpon she'riyatida poetik tilning xalqchillashuvi.....  | 72 |
| <b>Gulhayo Isabayeva.</b> "Quyoshim – enam" qissasida personajlar sisitemasi.....   | 75 |
| <b>Nazokatxon Tojibayeva.</b> Jamiyatda xotin-qizlarning rolini kuchaytirishga xizmat qiluvchi qaror va farmonlar hamda ularning ijtimoiy ahamiyatliligi..... | 76 |

## PEDAGOGIKA

|  |    |
|--|----|
| <b>Dilbar Ibragimova, Malika Muxamadiyeva.</b> Xorijiy tillarni o'qitishning ta'lim tizimida tutgan o'rni va o'qitishning nazariy mezonlari..... | 79 |
| <b>Maysara Axmedova.</b> Hadislarda ekologik tarbiya masalalari.....   | 82 |
| <b>Mohigul Fozilova.</b> O'zbek tili ta'limi jarayonida talabalarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish metodikasi.....                        | 86 |
| <b>Adash Rustamova.</b> Pedagogical approaches and diagnostics of teching in higher education.....   | 88 |

## METODIK TAVSIYA

|  |     |
|--|-----|
| <b>Nilufar Abidova.</b> Inklyuziv ta'lim sharoitida olib boriladigan pedagogik faoliyatning pedagogik imkoniyatlari..... | 92  |
| <b>Nilufar Turg'unova.</b> Ona tili ta'limida loyiha texnologiyasidan foydalanishga oid mavjud holat tahlili.....        | 94  |
| <b>Surayyo Inomjonova.</b> Fantastik asarlar orqali o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish usullari.....            | 98  |
| <b>Zamira Yuldasheva.</b> tili ta'limida loyiha texnologiyasidan foydalanishga oid mavjud holat tahlili.....             | 101 |

## TILSHUNOSLIK

|   |     |
|---|-----|
| <b>Umidaxon Ahmadova.</b> Perifraza va frazeologik birliklar.....   | 104 |
| <b>Ezoza Hazratqulova.</b> Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi psixolingvistikaning ahamiyati va nutq faoliyati turlari.....       | 107 |
| <b>Gulshoda Ruziyeva.</b> Sotsiopragsmatik tahlilda nutqiy aktlarning o'rni.....  | 111 |
| <b>Nargiza Aliyeva.</b> Evfemizm va ulardan foydalanish asoslari.....   | 112 |
| <b>Shohsida Eshbo'tayeva.</b> Til tarkibiga musiqa terminlarining ta'siri: dunyo tilshunosligi misolida.....                        | 114 |
| <b>Nigina Axmedova.</b> Til va madaniyatning o'zaro aloqasi.....  | 117 |
| <b>Sarvinov Mardonova, To'lqin Asadov.</b> Ayrim muallif nutqi neologizmlarining leksikografik talqini xususida.....                | 119 |
| <b>Lobar G'aniyeva.</b> Davlat boshqaruvi terminlarini tematik tasniflash nazariyasi.....   | 122 |
| <b>Manzura Ernazarova.</b> Masofiy ta'lim jarayonida o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya kompetentsiyasini rivojlantirish..... | 124 |
| <b>Maxfuza Axmadjonova.</b> O'zbek tilshunosligida matn muammosining o'rganilishi.....  | 126 |
| <b>Sadoqat Samandarova.</b> Evfemik frazeologizmlar tushunchasi va uning o'rganilish tarixi.....                                    | 128 |
| <b>Dilzodaxon Saydaliyeva.</b> O'zbek struktur tilshunosligining rivojida professor Sh.Iskandarovanning o'rni.....                  | 130 |
| <b>Dilara Dospanova.</b> Til va madaniyatning o'zaro ta'sirida antroponimlar.....   | 133 |

## KICHIK TADQIQOT

|  |     |
|--|-----|
| <b>Intizor Abdujabborova.</b> Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiy "Sad Irshodi Mullo Sidqiy Xondayliqiy" va "Zarbulmasali Sidqiy" asarlarining o'rganilishi..... | 135 |
| <b>Shohista Abduqodirova.</b> Ramziy-majoziy ma'no asosida axborot yetkazish.....  | 138 |
| <b>Zilola Mirqodirova.</b> The role of pronunciation for english students.....   | 142 |

**Shohista ABDUQODIROVA,**  
*Buxoro davlat universiteti*  
*Filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi*  
*Ilmiy rahbar: Toirova Guli Ibragimovna*  
*BuxDU O'zbek tilshunosligi va jurnalistika*  
*kafedrası professori, filologiya fanlari doktori*

## RAMZIY-MAJOZIY MA'NO ASOSIDA AXBOROT YETKAZISH

**Annotatsiya:** ushbu maqolada adabiyot fanida muhim o'rin tutadigan islomiy- ma'rifiy asarlar tizimidagi ramzlarning matndagi ma'no-mazmunini to'laqonlicha ochib berilganligini ko'rishimiz mumkin. Mumtoz adabiyotimizda qo'llanilgan so'zlarning asl ma'nosini anglash biroz mushkulroqdir. Matnning majoziy ma'nolari pragmatlingvistik tahlil tamoyillari asosida berilib, real-haqiqiy ma'nolari aks ettiriladi. Bu adabiyotning yuksalishi, asarlarning umrboqiyiligi uchun juda muhim o'rin egallaydi.

**Kalit so'zlar:** *ma'no, simvol, ramz, atov ma'no, haq/maqsad, to'siq/nafs, tolib/inson, adresant, situativ tizim.*

**Аннотация:** в данной статье мы видим, что в полной мере раскрыто значение символов в тексте системы исламо-просветительских произведений, занимающих важное место в науке о литературе. Немного сложнее понять истинный смысл слов, употребляемых в нашей классической литературе. Переносные значения текста даны на основе принципов прагматлингвистического анализа и отражены реальные смыслы. Это очень важно для подъема литературы и долговечности произведений.

**Ключевые слова:** *значение, символ, символ, значение имени, право/цель, препятствие/желание, ищущий/человек, адресат, ситуационная система.*

**Annotation:** in this article, we can see that the meaning of the symbols in the text of the system of Islamic-educational works, which have an important place in the science of literature, is fully disclosed. It is a little more difficult to understand the true meaning of the words used in our classical literature. The figurative meanings of the text are given based on the principles of pragmatlinguistic analysis, and the real meanings are reflected. This is very important for the rise of literature and the longevity of works.

**Key words:** *meaning, symbol, symbol, name meaning, right/goal, obstacle/desire, seeker/person, addressee, situational system.*

Jahon adabiyoti ilmiy tasnifi bo'yicha adabiy simvolizmning bir ko'rinishi sifatida baholanadigan islomiy ma'rifiy (mumtoz atamalarda: orifona, irfoniy, ma'naviy, zamonaviy atama sifatida: tasavvuf adabiyoti) asarlar mazmuni – barcha uchun behad oddiy, lekin o'ta serhajm va purqamrov bo'lishi bilan bir qatorda ma'no hajmi deyarli chegaralanmagan ramziy tizim bilan belgilanadi. Ma'no – muayyan sharoitda qiymatdoshlarining kengligi bilan ularni algebrik formulalarda istagan bir raqam(son)ning ramzi bo'lib kela oladigan  $a, b, c \dots$  (ma'lum sonlar uchun),  $x, y, z \dots$  (noma'lum sonlar uchun) belgilar bilan qiyoslash mumkin. Bu ramziy tizim quyidagi uchlikdan iborat:

HAQ/MAQSAD ←←←← TO'SIQ/NAFS ←←←← TOLIB/INSON

Bu tizimdagi ramzlar sinonimik, giponimik, partonimik, graduonimik turdagi ma'noviy aloqalar, «timsolning timsoli», (atama N.Komilovniki) tamoyili asosida mumtoz badiiy-ma'rifiy asarlarda qo'llanilgan atov ma'noli deyarli barcha so'zlarni o'z tizimiga tortadi. Har bir matndagi ma'noviy qiymat faqat shu matn uchun xos bo'lgan ahamiyatni kasb etadi. Ya'ni nutqda muayyan atov ma'no bag'ishlaydi /1;2;/.

Mumtoz badiiy-ma'rifiy asarlarimizning bunday xususiyatini tushunishni oriflarimiz ma'rifat va majozni uqish (ko'chma nutqiy ma'no tushunish) deb ataganlar. Shuning uchun xoja Ahmad Yassaviy: «Ma'rifatsiz bu so'zlarni anglamaydur,» - deb yozsalar, Mir Alisher:

*Onglakim, so'z o'zga ma'no o'zgadur,*  
*Ma'ni ongmoss hog'il ulkim, so'zgadur. /4,270 /*

deb ayni fikrni ta'kidlaydilar.

Matnda kelayotgan so'zlarning– xususan, tolib/inson mavqedagi so'zning real ma'nosi asosida ayni bir asar yoki bayt (band) rang-barang ma'no kashf etishi mumkin. San'atkorlar – tabiiyki, so'z mulkingning sultoni Mir Alisher Navoiy ham – bunday majoz va buyuk badiiy imkoniyatdan yuksak mahorat bilan foydalanganlar. Shunday majoziy ma'nolar asosida matnning real - haqiqiy nutqiy ma'nosi shunchalik keskin o'zgara olganki, u siyosiy-mafkuraviy – o'sha davrda ziddishar'iy - mohiyat kashf etib, orif adibni dor ostiga etaklagan. SHuning uchun Mir Alisher yuqorida keltirilgan baytlari ma'nosi (demak, butun asarda ilgari surilgan bosh g'oyani) uqqanlarni ehtiyotkorlikka chorlab, fikrlarini davom ettiradilar:

*Qush tili bilgan soʻzum fahm aylagay,  
 Fahm etardan ham base vahm aylagay....  
 Shart bukim, onglagʻon sharh etmagay,  
 Toki tilidin boshqa ofat etmagay /4,271 /.*

Oʻzini «imomuzzamon va xalifaturrahmon» deb mustabit va muztabit (ortodoksal) – dinu iymonni shariat ahkomlarini bilan tenglashtiradigan - islomni rasmiy siyosiy mafkura sifatida oʻrnata boshlagan. Temuriylarni dahriylikka ayblab bir-bir oʻldirayotgan Muhammad Shayboniyxonning kuchayib ketayotgan davrida hatto Mir Alisher Navoiy ham oʻz soʻzlarining mana shunday usul bilan hosil qilinishi mumkin boʻlgan bunday majoziy maʼno mohiyatidan (resp zamonaviy pragmalingsvistik atamalar bilan aytganda muallif tinglovchi uqishini maqsad qilib qoʻygan haqiqiy nutqiy maʼnoviy qiymatdan va yozma nutqiy muloqot samarasidan) hayiqib, ehtiyotkorlik bilan masʼuliyatni oʻzlaridan bir muncha chetga suradilar:

*Oʻz qoshimdin solmadi bu navʻ tarh,  
 Ayladim Attor asrorini sharh /4,271/  
 Har parishon soʻzki, yozdim , yo Karim,  
 Barchadin astagʻfirulloh al-azim /4,303 /.*

Chunki orif Mirning:

*Kim sen-oʻqsan har nekim maqsud erur,  
 Sendin oʻzga yoʻq nekim mavjud erur /4,270 /*

degan soʻzlari mutaassib va maʼrifat dushmani Shayboniyxon uchun adibni dor ostiga yoʻllash yoki terisini soʻyib somon tiqishga sharʼiy ruxsat olish uchun etarli dalil va asos boʻla olardi . Ramziy -majoziy maʼnolar asosida ayni bir soʻz xilma-xil matnda mana shunchalik maʼnoviy va taʼsirchanlik bilan axborot etkazish rang-barangligiga ega boʻlishi mumkin. Bunday maʼno rang-rangligi, yuqorida eslatib oʻtganimizdek, tolib/inson ramzi ostida kim nazarda tutilganligi, shu bilan bogʻliq ravishda bu «kim» oldida qanday maqsad (haq) turganligi, bu maqsadga (haqqa) erishishda haqqoniy (real) hayotda, voqelikda qanday qiyinchiliklarni bosib oʻtish, qanaqa toʻsiqlarni bartaraf etish, oʻzgalarga ziyon keltirmasdan, oʻziga hamda oʻzgaga yaxshilik qilish zarurati va imkoniyatlari bilan bogʻliq. Zeroki Mir Alisher Navoiy tasavvufning shakllanish oʻq ildizi xoja Abdulxoliq Gʻijduvoniya borib tiqaladigan, bosh shiori «Dil ba yoru dast bakor» («Xaq/maqsad - qalbd, qoʻl /shu maqsad yoʻlida/ ishda») boʻlib, keyinchalik oʻnlab suluku tariqatlarga (jumladan, «Naqshbandiya»ga ham) asos vazifasini oʻtagan yoʻnalishi muridlari (targʻibotchilari, izdoshlari, payravlari)dir. Bu yoʻnalish esa insonda meʼyoriy dunyoviy nafsoniy qiziqishlarni - oʻzgalarga ziyoniga va hisobidan emas, balki oʻz solih halol mehnati, faoliyati, aqli-yu zakovati bilan oʻzgalarga ham, oʻziga ham manfaatmandlikni - inkor etmaydi. Ularni Alloh bandasi zoti-yu tabiatida bandalik belgisi sifatida Yaratuvchining oʻzi mujassamlagan xislatlar – dengizda boʻlishi tabiiy va ilohiy boʻlgan mavjlar-u toʻlqinlar deb baholaydi. Mutafakkir adib haqqa/maqsadga yetishning asosiy usuli insonda boʻlgan nafsoniyatni engish ekanligini quyidagi misralarida targʻib etgan holda:

*Chun riyozat rafʻ etib ruhoniya,  
 Salb boʻlgach kimsadin nafsoniya,  
 Qolmagʻay ruhoniyatdin oʻzga hech...  
 Kim qilib meʻroji vahdatga guzar,  
 Li maʻ Alloh sirridin bergay xabar /4, 269 /,*

Shu bilan birga komil inson sifatida ilohiy dengiz, lekin zotan nafsoniy yaratilmish sifatidagi bandasida oddiy dunyoviy qiziqishlarni – dengizdagi mavjlarni - rad etmaydi. Bu gʻoyani adib, jumladan, quyidagi misralarda ifodalagan:

*Haq vujudi bahri mavj etkach ayon,  
 Nafs mavjiddin tengizga ne ziyon?!  
 Suv vujudidin tengiz boʻldi tengiz,  
 Boʻlsa ul mavjligʻ, gar mavjsiz /4, 269 /.*


Hayotga mana shunday dunyoviy, ongli yondashuv, xoja Hofiz taʼbirilari bilan aytganda, «Ikki dunyoni bir qoʻlda tutish», Mavlono Rumiy taʼbirlari bilan, «Tavakkalni Allohga emas, ishda qilish», ibodatni (Allohga qullik burchini) toatdagina emas, xayrli ishlarda koʻrish, katta samarali, barchaga manfaatli faolliyatga daʼvat tuzilish jihatidan formulaviy (simvolistik) tabiatga ega boʻlgan maʼrifiy-badiiy asar negizida yotgan ramzlarni mistik (xayoliy, orzuviy) va hayotiy-dunyoviy maʼnoli markaziy tushunchalar bilan toʻldirishga, har bir asarni - oddiy bir baytmi, ulkan masnaviyi – xilma-xil tushunishga imkon beradi. Badiiyat va ijod-u tafakkur oldiga keng yoʻl ochadi. Shuningdek bunday serqamrovlilik va ramzlarning real qiymatlariga koʻra real mazmunning oʻzgaruvchanligi mumtoz matnlarimizga nutqiy muloqotning zamonaviy tadqiq usullari – pragmalingsvistik tahlil tamoyillari bilan yondashishga /5;6;/ undaydi. Adiblarimiz mahoratining yangi qirralarini koʻz-koʻz qilish, tariximizni oʻz zamonaviy koʻzimiz bilan koʻrish va umumbashariy qadriyatlar bilan hamohang meʼyorlarimiz bilan oʻlchab baholash imkoniyatlarini ochib

beradi. Shu nuqtai nazardan adibning «G`aroyib us-sig`ar» devonidan o`rin olgan musammanning yettinchi bandini olib ko`ramiz. Matni uning quyidagicha:

*Ko`hi darding za`fliq tan birla chektim muddate,  
Kim, visol ummididin ko`nglumda erdi quvvate,  
Emdi rahm etkilki, yuzlanmish ajoyib holate,  
Ne ko`ngulda quvvate qolmish, ne tanda sihhate,  
Ne qaroru sabr, ne tobu tavon, ne toqate,  
Ne ko`ngul, ne jonu, ne ruhu ravon, ne paykare /3,510/*

Matnning umumiy ma`nosi: tolib/inson mavqeida turgan lirik qahramonning (adresantning) ma`lum bir maqsad yo`lida aniq bir umid bilan ma`lum muddat og`ir qiyinchiliklarni chekkani, endilikda holat o`zgarganligi, uning g`ululi tasviri asosida umidi qaratilgan manbadan (adresatdan) hamiyat-u shafqat-u qo`llash ilojisi berilgan.

Bu yozma nutqiy muloqotni bir situativ (oniy) tizim sifatida olsak, uning ichki qurilishini quyidagicha berish mumkin (1-chizma)



Bunda *tolib* (maqsadli shaxs) ramzi mavqeida lirik qahramonning (shoirning) o`zi – «men», ya`ni adresat kelgan. Mana shu yozma nutqiy muloqot orqali erishilishi kerak bo`lgan *haq/maqsad* ramzi ham, nutqning kimga qaratilganligi (ya`ni adresantning) ham matnning tayanch tushunchalari sifatida yuzaga chiqadi. Adresantning nutqiy muloqoti uning maqsadlari bilan bog`liq bo`lgan *dard, visol ummidi, rahm qilg`il, ajoyib holat* kabi ramzlarga borib taqaladi. Adresantning ilk holat tavsifi (*ko`hi g`am, za`flig` tan, chekmoq, muddate*) va uning keyingi holati g`ululi tavsifini beradigan 3-6-misralarda qo`llanilgan so`zlarning haqiqiy nutqiy qiymati «men» (adresant) ramzi bilan uzviy bog`liq. Mana shu «men» (adresant) ramzining qanday shaxs, kim bilan to`ldirishi bandning butun mazmuniga - unda ishlatilgan so`z-ramzlarning kommunikativ-pragmatik qiymatiga muayyanlik, aniqlik kiritadi. CHunonchi:

1. Adresant «men» ↔ **orif, so`fiy**.

Bunda **HAQ/maqsad** → *Alloh/HAQ; dard* → har bir tariqatu suluk uchun hos bo`lgan solik haqqa yetish uchun bartaraf etishi lozim bo`lgan qiyinchilik-u, aziyat-u, nafsni (o`zlikni) tiyish yo`l va usullari; *visol* → ilk ko`rinishda dengizdan ajralib bug`u, yomg`ir tomchisi-yu, daryo/buloq suvchi zarrasi-yu, o`simlik tarkibidagi suv-u... v.h.lar sifatida «sargardonlik-u ovaragarchilik»larni boshdan kechirgan tomchiday o`zi ajralib chiqqan dengizga qaytadan tushganday HAQqa, Mutlaqlikka singish va o`zligini tomoman yo`qotish maqsadi;

**1-holat** → dardni chin dildan ado etmoq; 2-holat → kuchdan qolganligi, zaiflashganligi (na quvvati, na sog`lig`i, na sabru toqati, na jonu-tani, na ruhi, na paykar.... qolganligi) sababli dardni o`zi xohlagandek chekolmayotganligi va endi HAQdan rahmatu shafqat tilab, umidvor bo`lish holati;

2. Adresant «men» ↔ obid/zohid /shayx,..., oddiy musulmon;  
Bunda HAQ/maqsad → Alloh, xudo, tangri; dard → shariat u dunyoda jannatdan joy olish uchun bu dunyoda bajarishni talab etadigan amallar; visol → jannatda huzur-u halovat bilan abadiy yashash;

**1-holat** → bu dunyoda shariat ahkomlarida to'la rioya qilgan holda yashash;

**2-holat** → qarib, zaiflashgani sababli shariat talab qiladigan ahkomlarni to'la bajarolmaydi, shuning uchun Xudodan rahmat-u shafqat tilaydi.

3. Adresant «men» ↔ **ota, padar;**

Bunda HAQ/maqsad → farzand, bola; dard → ta'lim-tarbiya qiyinchiliklari; visol → farzand ulg'ayib voyaga etgach, uning soyasida yashash, huzurini ko'rish mamnuniyati;

**1-holat** → bir farzandni o'stirib, ulg'aytirish, o'qitib tarbiyalash va voyaga etkazish mehnatlari;

**2-holat** → qariganligi, zaiflashgani sababli «aqlga kirmagan» farzanddan iltijo qilish holati.

4. Adresant «men» ↔ **ustoz, murabbiy.**

Bunda HAQ/maqsad → shogird, izdosh; dard → ta'lim-tarbiya qiyinchiliklari; visol → shogirdning kamolga yetishishi, ustozning ishini davom ettirishi, ustoz hurmatini joyiga qo'yishi;

**1-holat** → bir shogirdni voyaga etkazish mehnatlari;

**2-holat** → «izdan chiqqan» shogirdan iltijo qilish holati.

(Buni quyidagi sxema asosida davom ettirish mumkin:

Adresant «men» ↔ ...Bunda HAQ/maqsad → ...; **dard** → ...; **visol** → .....; **1-holat** → ....; **2-holat** →... )

Mana shu usuldagi «formula»da har bir «sitamkash» o'ziga tegishli qiymatlarni qo'yib, unda o'zini ko'rishi mumkin.

Sharq, jumladan, o'zbek mumtoz ramziy badiiy-ma'rifiy asarlarining nafaqat jahon adabiyotida, balki butun san'atida simbolizm yo'nalishining rivojlanishi kuchli aks etgan. Mubolag'asiz aytish mumkin, Leonardo De Vinchi va Gyote asarlari ming yillar davomida turli din-u, mintaqa-yu, millat-u, mafkura-yu turli kasb-korli ziyolilar uchun hamma davrlarda bir xilda matlub-u marg'ubdir. Buning sababi undagi mana shunday ramziy mohiyatning borligidadir. Ma'rifatli har bir inson tolib ramzida o'zini, tasvirda esa o'z holat-u kechinmalarini ko'ra oladi. Shuning uchun uni sevib o'qiydi, qayta-qayta takrorlaydi va uzluksiz davom ettiradi. Bu adabiyot - riyoziyotdagi bir real (qo'shish) va bir ideal (tenglashtirish) mohiyatning turli voqelanishlari bo'lgan to'rt amalday, mohiyatini saqlagan holda har bir davrning o'z ehtiyojlari uchun shu davrga xos va mos xizmat qiladi. Takomillashib boradi hamda davrni olg'a etaklaydi.

Mumtoz ma'rifiy asarlariimizning (G'arbiy Yevropa Renessansi asarlarining ham) umrboqiyiligi siri ham shundadir – ular go'zallik ramzi sifatida barcha davrlar uchun marg'ub-u matlub.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirova Sh ,Sifatning pragmatik xususiyatlari, O'zbekistonda milliy tadqiqotlar : davriy anjuman . Toshkent -2022, 25-27-betlar

3.Abduqodirova Sh ,Leksik-semantik razmetkalash nazariyasidagi qarashlar Modern scientific research: achievements innovations and development prospects ,Germaniya ,2023

4.Toirova G. About the technological process of creating a national corps. // Foreign languages in Uzbekistan. Electronic scientific-methodical journal. - Tashkent. 2020, № 2 (31), –B.57– 64. <https://journal.fledu.uz/uz/ 2-31-2020>

5.Toirova G. The importance of linguistic module forms in the national corpus//Zamonaviy fan, ta'lim va tarbiyaning dolzarb muammolari (Mintaqada zamonaviy fan, ta'lim va tarbiyaning dolzarb muammolari) (Elektron ilmiy jurnal), – Урганч. 2020, № 5, –Б.155-166. [http://khorezmscience.uz/public/archive/2020\\_5.pdf](http://khorezmscience.uz/public/archive/2020_5.pdf)

8. Vohidov R., Ne'matov H., Mahmudov M., So'z bag'irida ma'rifat. -Toshkent. YOZuvchi. 2001.

9.Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. Birinchi kitob. -Toshkent. YOZuvchi.1996.

11. Navoiy Alisher, Mukammal asarlar to'plami. O'n ikkinchi chi tom.. 3-tom. Toshkent.Fan. 1996.

12. Safarov SH. Pragmalingsvistika. -T.: O'zME, 2008. -285 b.

13. Safarov SH., Toirova G. Nutqning etnosotsiopragsmatik tahlil asoslari. O'quv qo'llanma. -Samarqand, 2007. -40 b.